

## T.QAYIPBERGENOVNING "QALBIMNING QOMUSI" REPORTAJ-ESSESI VA FOLKLORIZM

Utepbaeva Nargiza Mamit qizi

Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti 1-kurs

magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454688>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada To'lepbbergen Qayipbergenovning "Qalbimning qomusi" reportaj-essesida folklorizmning namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda qo'llangan frazeologizmlar, maqol-matallar, hikmatli so'zlar hamda xalq donishmandligi namunalari badiiy-estetik va falsafiy vazifalari yoritilgan. Muallifning xalq og'zaki ijodi unsurlaridan foydalanish orqali milliy ruh, ma'naviy qadriyatlar va insoniy fazilatlarini ochib berish mahorati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, asardagi turg'un iboralar va hikmatlarning uslubiy xususiyatlari hamda reportaj-esse janri badiiy imkoniyatlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** folklorizm, reportaj-esse, frazeologizm, maqol-matal, hikmatli so'zlar, xalq og'zaki ijodi, badiiy uslub, ma'naviyat, milliy ruh.

### Abstract

This article analyzes the manifestation of folklorism in the reportage-essay "Encyclopedia of My Heart" by Tulepbergen Kaipbergenov. The artistic, aesthetic, and philosophical functions of phraseological units, proverbs, sayings, and examples of folk wisdom used in the work are highlighted. The author's skill in revealing the national spirit, spiritual values, and human qualities through the use of elements of oral folk art is demonstrated. In addition, the stylistic features of fixed expressions and sayings, as well as the artistic possibilities of the reportage-essay genre, are analyzed.

**Keywords:** folklorism, reportage-essay, phraseological units, proverbs, folk wisdom, oral folk art, artistic style, spirituality, national spirit.

### Аннотация

В статье анализируются особенности проявления фольклоризма в репортаже-эссе Тулепбергенова Каипбергенова "Энциклопедия моей души." Освещены художественно-эстетические и философские задачи фразеологизмов, пословиц и поговорок, а также образцов народной мудрости, использованных в произведении. Показано мастерство автора раскрывать национальный дух, духовные ценности и человеческие качества через использование элементов устного народного творчества. Также проанализированы стилистические особенности устойчивых выражений и изречений в произведении, а также художественные возможности жанра репортаж-эссе.

**Ключевые слова:** фольклоризм, репортаж-эссе, фразеологизм, пословицы и поговорки, изречения, устное народное творчество, художественный стиль, духовность, национальный дух.

To'lepbbergen Qayipbergenovning "Qalbimning qomusi" asari yozuvchining ko'p yillik ijodiy tajribasi, hayotiy falsafasi va badiiy izlanishlari mahsulidir. Bu asar o'zining janr tabiatiga ko'ra reportaj-esse deb belgilangan bo'lsa-da, uning mazmuni va ko'tarilgan masalalari oddiy publitsistik doiralardan chiqib ketadi. Yozuvchi bu asarida o'z qalbi bilan sirlashadi, ijtimoiy va ma'naviy

muammolarni xalq donishmandligi va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tahlil qiladi. Asar 2008-yilda "Bilim" nashriyotida chop etilgan. Muallif bu asarini "Turli g'ovur-g'uvurlar va hikmatlardan reportaj-esse" deb atashi bejiz emas, chunki bunda inson qalbidagi ichki kechinmalar, jamiyatdagi turli fikrlar va tarixiy haqiqatlar o'zaro bog'lanib ketgan. Bu kitob qoraqalpoq adabiyotida xalq tilining boyligini, frazeologik qatlamini va falsafiy teranligini ko'rsatuvchi noyob asar hisoblanadi. Kitob mazmuni aholining turmush tajribasi, ko'cha-ko'ydagi, avtobus va bozorlardagi gap-so'zlar, falsafiy fikrlar bilan sug'orilgan. Asar yozuvchining ko'p yillik ijodiy tajribasi, hayotiy falsafasi va badiiy izlanishlari mahsulidir. Asar 2008-yilda "Bilim" nashriyotida chop etilgan. Muallif bu asarini "Turli g'ovur-g'uvurlar va hikmatlardan reportaj-esse" deb atashi bejiz emas, chunki bunda inson qalbidagi ichki kechinmalar, jamiyatdagi turli fikrlar va tarixiy haqiqatlar o'zaro bog'lanib ketgan. Asarning g'oyaviy o'zagini ochishda yozuvchi xalq og'zidagi afsona, rivoyat, tarixiy hikoyalar, maqol-matallar va hikmatlardan keng foydalanadi. Ular yozuvchiga qoraqalpoq xalqining tarixini, qanday xalq ekanligini, milliy ruhini ochish uchun xizmat qiladi.[2, 60]

Asardagi frazeologizmlar qo'llanilish xususiyati eng avvalo muallifning real hayotni tasvirlash mahoratidan ko'rinadi. Masalan, "Qil ustida turish" frazeologizmi asarda nafaqat xavfni, balki ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarning murakkabligini tasvirlashda qo'llaniladi. Muallif bu orqali insonning ichki qo'rquvi bilan jamiyatdagi beqarorlikni mohirona bog'laydi: "...odamlar yig'ilishlarda qabul qilinajak qarorlarni ma'qullamas, taqdiri qil ustida qolishini sezganidan atrofdagilarga ko'rsatib ma'qullagan bo'lib, qo'lini ko'tarsa ham..."[3,5].

Shuningdek, "Ko'zning qorachig'iday asrash" turg'un iborasi asarda xalqning tarixiy yodgorliklari va Vatan munosabatida ko'p uchraydi: "Vatan bu ko'zning qorachig'i kabi asralishi lozim bo'lgan makon"[3, 4]. Bu yerdagi ko'z qorachig'i ma'nosi inson uchun eng muhim bo'lgan narsa - o'zlik ekanligini tushuntiradi.

"O'gay farzand" turg'un birikmasi esa asarda juda chuqur falsafiy ma'noga ega: "Ya'ni o'zining kimligini, taqdir-tarixini bilmagan xalq insoniyat olamidagi o'gay farzanddir"[3,413]. Bu qator o'zining kelajagini qurish uchun tayanch bo'lgan milliy ildizlaridan, tili va tarixidan ajralgan xalqning boshqa millatlar orasida obro'si va o'z o'rni bo'lmasligini tushuntiradi.

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqol-matallari folklorning ixcham shakl, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan bir janridir[1,63]. Asardagi maqol-matallar, masalan "Bersang olasan, eksang o'rasan!"[3,218] degan maqol ma'nosidagi so'zlar insoniylikning bosh qonuni sifatida ko'rsatilgan. "Mening dushmanimni quvvatlagan do'stim dushmanim" [3,444] degan hikmat esa do'stlik haqiqatni ko'rsatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Muallif bu jumalarni asar ichida shunchaki tizib qo'ymay, balki har birining ostida yotgan hayotiy vaziyatni tahlil qiladi.

Shuningdek, "Ilmsiz aql - astarsiz to'n" [3,96] donolikni qo'llash orqali astarsiz to'n isitmaydi, ilm to'qishdan erinmanglar degan hikmatli so'z bilimni yuqori qadrlaydi. Bilimsiz aql odamni to'g'ri yo'lga boshlay olmaydi, faqat ilm inson hayotini yoritib, uni kamolotga yetkazadi. Yozuvchi har bir insonni uzluksiz o'qishga va rivojlanishga chorlaydi.

Ko'zlaringni yumsang qalbing ko'zlaringga aylanadi"[3,3] degan xalq donishmandligini muallif asarining asosiy falsafiy yo'nalishi sifatida qo'llaydi. Bu yerda muallif inson tashqi dunyoning g'ovur-g'uvuridan vaqtincha uzoqlashib, o'z ichki dunyosiga tikilgandagina haqiqatni ko'ra oladi. Qalb - bu har bir insonning ichki vijdoni va to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi chirog'i. Shuningdek, asarda "Insonning butun siri uning tilidan chiqqan so'zlarida yashirinib yotadi"[3,4]. Bu yerda so'zning qudrati va insonning ichki madaniyatini ochib berishdagi roli ko'rsatilgan. Odam qanchalik yaxshi ko'rinishga ega bo'lmasin, uning aytgan har bir so'zi uning haqiqiy niyatini va aql

darajasini oshkor qilib qo'yadi. Shu bois, adib o'quvchini so'zga e'tiborli bo'lishga va har bir fikrning ma'naviy zalvorini his etishga chaqiradi.

Vatan haqidagi o'ylarida adib shunday teran satrlarni keltiradi: "Vatan bu unga, senga, menga kuch beradigan ruh. Vatan bu u, sen va men o'lsak tanamizni yashiradigan tuproq" [3,4]. Bu o'rinda muallif, Vatan nafaqat geografik hudud, balki bizga ma'naviy kuch beradigan, ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan muqaddas tushuncha. Vatan - bu tirik yurganimizdagi achinishimiz, ammo boqiylikka ketganimizdagi makonimiz. Bundan tashqari, "Vatan faqat tiriklarning mulki emas, qabristonda yotgan ota-bobolarning ham, qiyomat-qoyim kunigacha tug'ilajak avlodlarning ham, bu aziz vatan tuprog'ida haqlari bor"[3,449] degan O'g'uzxon boboning so'zi orqali muallif Vatanning mangu ekanligi va har bir avlod uni kelajakka pok holda yetkazishga mas'ul ekanini uqtiradi. Bu vatan haqidagi hikmatlarning birida muallif musulmon xalqlarining dafn marosimini keltirib o'tgan.

Asarda ma'naviyat va sabr-qanoat masalalariga ham katta e'tibor berilgan. "Hazrati Umar xalifa "sabr-qanoat - bebaho baxt!"[3,96] degan ekan, qanoatli bo'lish o'z qo'lingizda ekanini unutmanglar!" degan donolik orqali yozuvchi insoniylikning yuksak cho'qqisini ko'rsatadi. Sabr - bu qiyinchiliklar oldida bosh egish emas, balki maqsadga erishish yo'lidagi ruhiy barqarorlik va ichki poklanishdir.

Ijtimoiy munosabatlar haqida so'z ketganda, muallif "Bir-biringizga "Tomoshabin" emas, jonkuyar bo'linglar!"[3,259] deb o'quvchiga murojaat qiladi. Bu satrlarda, jamiyat o'rtasidagi eng katta xavf - bu beparvolik va boshqalarning qiyinchiligiga faqat chetdan qarab turish. Muallif bunday donolik va pand-nasihat so'zlari orqali insonlarni to'g'ri yashashga, ta'lim va tarbiyali bo'lishga chaqiradi. Bu turg'un iboralar va hikmatlar orqali o'zining yurak so'zini xalq tili bilan uyg'unlashtirib, reportaj-esse janrini yangi bosqichga ko'targan. Shuning uchun ham bu asardagi har bir frazeologizm va hikmat o'zining muqim o'rni va uslubiy ma'nosiga ega bo'lib, o'quvchiga estetik va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Asar tili shunday obrazli so'zlar hisobiga juda qiziqarli va o'qishga oson bo'lib chiqqan. Muallif an'anaviy frazeologizmlarga yangicha ma'no yuklab, ularni o'z davrining dardlari bilan bog'laydi. Bu uslub asarning uslubiy tiniqligini va o'quvchiga ta'siri badiiyligini ta'minlaydi. Shuningdek, xalq tilidagi "og'zaki hikmatlar" yozma adabiyotga ko'chirilganda, yozuvchining unga qo'shgan falsafiy nuqtayi nazari asarning janr tabiatini boyitadi. Har bir frazeologizm tili va ma'nosi bo'yicha xalqning qadriyatlarini ko'rsatuvchi ko'rinishlar sifatida qo'llanilgan.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Murodova M. Folklor va etnografiya. «Aloqachi». – Toshkent., 2008.
2. Палуанов Б. Ҳазирги қарақалпақ әдебиятында эссе жанры (Жанрдың пайда болыуы хәм қәлиплесиуи, шеберлик мәселелери) кандидатлық диссертация Нәкис 2008.
3. Қайыпбергенов Т. Қәлбимниң қамусы – Нәкис, «Билим», 2008.